



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

KINOYANI TAHLIL QILISHDA PRAGMALINGVISTIK VA LINGVOMADANIY YONDASHUV

Jumayeva Gulnoza

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Adabiyotshunoslikda kinoyani tahlil qilish uchun avval uni vujudga keltiradigan sabablar o'rganiladi. Bu sabablar jamiyat, zamon va inson turmush tarzi, madaniyat, makon kabi omillarga bog'liq. Chunki adabiyot inson va uni o'rab turgan olam, ijtimoiy turmush tarzi, yashash uchun sabab bo'layotgan vositalar va maqsadlar haqida gapiradi. Shu maqsad va sabablarning oqibati borasida hikoya qiladi. Ushbu sababdan ham insonni faqatgina tirik jon sifatida emas shaxs sifatida tasvirlay olish uchun, u yashayotgan turmush tarzi va muhit inobatga olinishi lozim. Ushbu maqoladagi nazariy qarashlar va misollar badiiy matnda kinoya faqat muallif uslubi orqali emas, balki ijtimoiy-madaniy muhit bilan uyg'unlashgan va kitobxonning tushunish saviyasi orqali yuzaga chiqadigan ko'p bosqichli kommunikativ hodisa ekanligini tushuntirish uchun dalil sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: ironiya, pragmalingvistika, lingvomadaniy yondashuv, ijtimoiy chegara, pragmatika, semantika, diskurs tahlil.

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОДЫ К АНАЛИЗУ ИРОНИИ

Джумаева Гульноза

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, базовый докторант

Аннотация

В литературной критике для анализа иронии сначала изучаются причины её возникновения. Эти причины зависят от таких факторов, как общество, время, образ жизни человека, культура и пространство. Поскольку литература рассказывает о человеке и окружающем его мире, социальном образе жизни, а также о средствах и целях, которые побуждают его жить, она описывает последствия этих целей и причин. Поэтому, чтобы описать человека не только как живое существо, но и как личность, необходимо учитывать образ жизни и среду, в которой он живёт.

Теоретические взгляды и примеры в данной статье представлены в качестве доказательства того, что ирония в литературном тексте — это многоступенчатый коммуникативный феномен, который проявляется не только через стиль автора, но и через уровень понимания читателя.

Ключевые слова: ирония, прагмалингвистика, лингвокультурный подход, социальная граница, прагматика, семантика, дискурсивный анализ.

PRAGMATIC-LINGUISTIC AND LINGUOCULTURAL APPROACHES TO THE ANALYSIS OF IRONY

Jumayeva Gulnoza

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Basic Doctoral Student

Abstract

In literary criticism, to analyze irony, the reasons that give rise to it are first studied. These reasons depend on factors such as society, time, and human lifestyle, culture, and space. Because literature talks about man and the world around him, social lifestyle, and the means and goals that cause him to live. It tells about the consequences of these goals and reasons. For this reason, in order to describe a person not only as a living being but also as a person, the lifestyle and environment in which he lives must be taken into account. The theoretical views and examples in this article are presented as evidence to explain that irony in a literary text is a multi-stage communicative phenomenon that occurs not only through the author's style, but also through the reader's level of understanding.

Keywords: irony, pragmalinguistics, linguocultural approach, social boundary, pragmatics, semantics, discourse analysis.

Adabiyot insonga, xoh odam, xoh hayvon, xoh boshqa bir vosita orqali bo'lsin, insoniylik degan tushunchaning ahamiyati va mazmunini tushuntirishga xizmat qiladi. Muallif ham, kitobxon ham insondir. Shu sababli har bir asardagi g'oya va mazmun o'sha asar muallifining shaxsi, qadriyatlarini hamda yashagan zamon muhiti bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ayrim mualliflar asarlar orqali anglatishni istagan asl haqiqatlarini timsollar yordamida ifodalasalar, boshqalari ayni o'sha so'zning teskarisini aytish orqali ma'no yaratadilar. Quyidagi maqolada qisqacha "teskarisini aytish" deb ta'riflanadigan kinoyaning adabiyotshunoslikda tahlil qilinish metodlari haqida so'z yuritiladi.

Jahon adabiyoti miqyosida ulug'lanuvchi, yaratgan asarlaridagi ma'no salmog'i keng va hanuz kitob do'konlarining old peshtaxtalaridan asarlari tushmagan ko'plab yirik adiblar o'z asarlarida falsafiy kinoyadan foydalanganlar. Bu esa har bir kitobxoniga o'z intellektual salohiyati va tajribasi orqali ijodkor asarga yashirgan ma'noni turlicha tahlil qilish imkonini beradi. Adabiyotshunoslikda kinoyani tahlil qilish uchun, avvalo, uni vujudga keltiradigan sabablar o'rganiladi. Bu sabablar jamiyat, zamon va inson turmush tarzi, madaniyat, makon kabi omillarga bog'liq. Chunki adabiyot inson va uni o'rab turgan olam, ijtimoiy turmush tarzi, yashash uchun sabab bo'layotgan vositalar va maqsadlar haqida gapiradi. U aynan shu maqsad va sabablarning oqibati borasida hikoya qiladi. Shu bois insonni faqatgina tirik mavjudot sifatida emas, balki shaxs sifatida tasvirlay olish uchun u yashayotgan turmush tarzi va muhit ham inobatga olinishi lozim.

Badiiy adabiyotda kinoya nafaqat kayfiyat beruvchi kulgili vosita, balki jamiyatdagi turli ziddiyatlar, kamchiliklar va muammolarni fosh etuvchi badiiy qurol ham sanaladi. Kinoya orqali asarda tasvirlanayotgan voqelikka nisbatan qo'llangan so'z aslida shu so'zning antonim ma'nosini yoki bayon etilayotgan qahramon kayfiyatining aksini ko'rsatish orqali kitobxonida achchiq kulgi yoki chuqur mulohaza kayfiyatini uyg'otadi. Ya'ni bu holat o'ziga xos badiiy ikkiyuzlamalikni eslatadi. Badiiy kinoyaning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-madaniy omillarni chuqurroq tadqiq etish uchun badiiy matnning quyidagi pragmalingvistik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida tahlil etish lozim.

Pragmalingvistik tahlil tilshunoslikda qo'llanila boshlaganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, ko'plab tadqiqotlarning asosiy tahlil vositalaridan biriga aylanib ulgurdi. Adabiyotshunoslikda ham badiiy matn tahlilida u "tildagi birliklarning ma'no hamda vazifalarini kommunikativ jarayon, kontekst va nutq ishtirokchilari nuqtayi nazaridan o'rganadi" [3]. O'tgan asr o'rtalaridan keng qo'llanila boshlagan bu usul so'zlardagi ma'no faqat lug'aviy va grammatik qoidalar bilangina cheklanib qolmasligini, uni to'liq anglash va tushunish uchun so'zni qo'llovchi shaxs, tinglovchi, shu bilan birga nutq tashkil topayotgan, uni vujudga keltirgan sabab va vaziyat ham inobatga olinishi lozimligini asoslab beradi. Pragmalingvistik tahlil jarayonida ironiyaning yuzaga kelish mexanizmini, nutqdagi har bir ko'chma ma'no anglatayotgan so'zning ma'nosini tushunish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

1. **Nutq ijrochisi va uning shaxsi.** Kommunikantning shaxsi, qadriyatlarini va maqsadini

inobatga olmay turib ifodalanayotgan ma'noni tahlil qilish noo'rin. Sababi, til ijtimoiy hodisa bo'lib, subyektning aniq maqsadi bo'lmay turib uni qo'llamaydi. Nutq ehtiyoj tug'ilgan holatdagina yuzaga keladi.

2. **Kontekst.** Kontekst muloqotni yuzaga keltirgan barcha sabablarni, so'zlovchi hamda tinglovchi orasidagi holatni tushunishga yordam beradi. Muloqotda istehzoning mavjudligi har doim ham qo'shtirnoq ("...") belgisi yordamida ifodalanmaydi. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida muallif nutqi yoki asar qahramoni tilida kinoya bor-yo'qligini aniqlash uchun aynan kontekst yaxlit holda tahlilga olinishi lozim.

3. **Nutq maqsadi va ohang.** Nutqning yuzaga kelish maqsadiga e'tibor qaratilsa, har qanday asar yaratilishida muallifning aniq bir maqsadi, o'z o'quvchisiga aytar so'zi bo'ladi. Misol uchun, jadid adabiyotida asosiy g'oya xalqni birlashtirish va uyg'otish bo'lgan bo'lsa, eski tizim davrida adabiyotning ayrim vakillari aksincha, xalqni yaxshi yashayotganligiga, og'ir va tinimsiz mehnat yomon emas, balki fidoyilik va mehnatsevarlik belgisi ekanligiga, inson o'zi uchun emas, avvalo davlat uchun yashashi lozimligiga ishonitirib, ommani tinchlantirib turishni maqsad qilgan asarlar yaratganlar. Asar qahramonining nutq maqsadi faqatgina yozuvchi g'oyasini tashibgina qolmay, aksar hollarda uning xarakterini yoki voqelik holatini, ba'zan esa keyin ro'y beradigan voqealar syujetiga ishora qilib keladi. Real hayotdagi kabi badiiy adabiyot doirasida ham so'zlar samimiy hamda niqoblangan tarzda namoyon bo'ladi.

Lingvomadaniy yondashuv esa tahlil qilinayotgan badiiy matn tegishli bo'lgan millatga xos madaniy qarashlar, folklor manbalari, matallar va an'analarni o'rganish orqali matnda ifodalanayotgan ma'noni tahlil qilishni anglatadi. Sodda tilda tushuntiriladigan bo'lsa, o'zbek tilidagi "yuragida o'ti bor" iborasi kontekstda doim ham subyektning qiynalayotganini, azob chekkanligi sababli ichi yonayotganligini emas, balki ma'lum bir maqsad yo'lida g'ayrati bor ekanligini bildiradi. Turk tilida esa bu boshqa ma'noni ifodalashi mumkin. Shuningdek, turklardagi "eshshak ko'zli" iborasi haqorat ma'nosini emas, balki bu so'z birligi qaratilgan insonning kipriklari uzun va shahlo ko'zli ekanligini anglatadi. Birgina "tosh" so'zini ikki tilda qiyoslasak, o'zbeklarda "tosh eriydi, u erimaydi" yoki "toshdek" ta'rifi ko'p hollarda qahri qattiq insonga nisbatan qo'llaniladi. Turk tilida esa "tosh kabi" ta'rifi chidamli, sabrli va go'zal yuzli insonlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Shu sababli lingvomadaniy yondashuv asardagi ma'noni to'g'ri tushunishda muhim sanaladi.

Kinoyaning lingvomadaniy tahlil bilan o'zaro bog'liqligi borasidagi nazariy qarashlar tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid bir qator tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lib, ularda badiiy nutqning milliy xususiyatlari va konnotativ qatlam tufayli kinoyadagi yashirin ma'noni topish osonlashishi turli misollar orqali asoslangan.

Tilning nozik qatlamlaridan biri hisoblangan ironiya badiiy adabiyotda ham ma'noni ochiq-oydin bayon qilmasdan, "aytilgan" so'z hamda "nazarda tutilgan" ma'no o'rtasidagi farq orqali semantik va estetik ta'sirni oshiradi. Biroq kinoyani faqat stilistik usul sifatida ko'rish uni yuzaga keltiruvchi omillarning murakkabligini to'liq ifoda eta olmaydi. Chunki kinoya doim ijtimoiy tajriba, axloq me'yorlari, joyga xos an'analar va aniq bir madaniy bilimlar bilan birgalikda shakllanadi. Kinoyani vujudga keltiruvchi vositalarni badiiy matnda keltirilgan ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'lab tahlil qilish nafaqat poetik tushunishnigina, shu bilan birga milliy qadriyatlarni so'z orqali ifoda etish uslubini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bugungi kunda adabiyotshunoslar va tilshunoslar mavzuga doir tadqiqotlarini pragmatika, semantika va diskurs tahlili kesishgan nuqtada olib bormoqdalar. Umuman olganda, kinoya:

1. **Implikatura** (gapning yashirin ma'nosi),
2. **Presuppozitsiya** — gap ichida yashirin turgan, oldindan hammaga ma'lum bo'lgan ma'lumot,
3. **Baholash** — kinoya qiluvchining aytmoqchi bo'lganlarini tinglovchining o'z tafakkur dunyosiga ko'ra anglashi va qabul qilishi,

4. **Muallif pozitsiyasi** bilan bevosita bog‘liq hodisa sifatida baholanadi [2].

Adabiyotshunoslikda kinoya ko‘pincha ijtimoiy munosabatlar, axloqning insonlar nazaridagi rasmiy yoki norasmiy shakli, shu bilan birga “maqbul kinoya”ning me‘yoriy chegaralari bilan belgilanadi. Kinoyaga oid ilmiy izlanishlarda uning yuzaga kelishi vaziyatga, zamon va makon hodisasiga qarab shartli bo‘lishi haqida bir necha qarashlar mavjud bo‘lib, ayrim tadqiqotlarda aynan ijtimoiy-madaniy omillarning ahamiyati, qaysi vaziyatda ironiyaga talab oshishi hamda uning neytrallashishi, kitobxon kinoyani qanday sababga asoslanib tushunishi kabi savollarga aniq va yaxlit javob hali to‘liq konseptualashtirilmagan.

Adabiyotda kinoya aksar hollarda ijtimoiy-siyosiy muammolarni o‘rab tanqid qilish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bu barcha kinoya holatlarining ma‘lum bir muammoga ishora qilib kelayotganini anglatmaydi. Nutq jarayonidagi kabi badiiy matnda ham yashirin ma‘no va piching qahramon xarakteri, qadriyatlar va intellektual kuchini tasvirlash uchun xizmat qilishi mumkin. Kinoyani tushunish, ma‘noni topish uchun esa jamiyatdagi odob va etiketning muloqot uchun belgilangan “chegara” tushunchasi muhim hisoblanadi. Bu chegarani lingvomadaniyatshunoslikda “madaniy norma” tushunchasi bilan almashtirib, estetik jihatdan kinoyaning darajasini uning qaysi maqsadni ifodalab kelishi orqali anglay olamiz.

Misol uchun, past darajali kinoya ko‘pincha “o‘zini himoya qilish” va “hiyla bilan qarshilik ko‘rsatish” maqsadida yuzaga chiqadi. Yuqori statusli kinoya esa qarshi tomonga “me‘yorni eslatish” shaklida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon badiiy matndagi kinoyaning ijtimoiy-psixologik tabiatini tasvirlaydi. Bundan tashqari, bu jihat adabiyotshunoslikda kinoyaning estetik samarasi hamda ijtimoiy qabul qilinishi o‘rtasidagi muvozanat doimiy o‘rganilib boriladigan bahsli mavzu ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqorida “chegara” deb ifodalangan me‘yor kinoyaning vujudga kelishida ahamiyatli bo‘lib, agar o‘sha me‘yor mavjud bo‘lmasa, kinoya bachkanalashib ketishi, aks holda esa ochiq haqorat darajasiga yetishi mumkin. Sanalganlardan tashqari, jamiyat doirasidagi kommunikativ aloqa jarayonida o‘z-o‘zidan “maqbul” va “nomaqbul” deb qaraladigan o‘lchov mavjud bo‘lmasa, u holda kodlangan so‘zlardan ko‘ra ochiq tanqid va norozilikni ifoda etish kuchayib, o‘ralgan kalimalarga ehtiyoj qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akbarova X. Matnga lingvomadaniy va lingvopoetik yondashuv (maqola) // *American Journal of Education and Learning*. — 2025. — 3-jild, 30-may.
2. Arutyunova N. D. Til va inson olami. — Moskva: Yazyki ruskoy kultury, 1999. — 896 b.
3. Ergashova D. Pragmalingvistikaning predmeti yoxud pragmalingvistik tahlil (maqola) // *Research and Implementation ilmiy-uslubiy jurnali*. — 2025. — № 1 (23). — B. 159.
4. Mahmudov N. Til va nutq. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. — Toshkent: Fan, 2008.
6. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
7. Stanford Encyclopedia of Philosophy. S. Kierkegaard haqidagi maqola. — URL: <https://plato.stanford.edu/archives/sum1998/entries/kierkegaard/>